

**MOVAROUNNAHRDA TASAVVUF TA'LIMOTINING SHAKLLANISHI  
VA UNING MA'NAVIY MAFKURAVIY TARIXI**

**THE FORMATION OF SUFISM IN MOVAROUNNAHR AND ITS  
SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL HISTORY**

**СТАНОВЛЕНИЕ СУФИЗМА В MOVAROUNNAHRE И ЕГО ДУХОВНАЯ  
И ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ ИСТОРИЯ**

Xurshida Asliddinovna Oromova

Toshkent Axborot Texnologiyalar Universiteti

Samarqand filiali "Axborot kommunikatsiyasi sohasida

Kasb ta'limi" fakulteti 1-kurs talabasi

telefon raqami +998937272421

electron pochta manzili: [oromovaxurshida2005@mail.com](mailto:oromovaxurshida2005@mail.com)

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Movarounnahrda tasavvuf ta'limotining shakllanishi va uning ma'naviy-mafkuraviy tarixi tahlil qilingan bo'lib, unda tasavvuf ta'limotining qanday kelib chiqqanidan tortib to rivojigacha o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, tariqat, yassaviya, naqshbandiya, komil inson, so'fiylik, umaviylar, sha'riyat, ma'rifat .

Tasavvuf o'rta asrlar musulmon sharqida keng tarqaladi. bu ta'limot dastlab VIII asr o'rtalarida Iroqda yuzaga kelgan. Tasavvuf (sufiylik) musulmonlarni halolikka poklikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, har kimni o'zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka da'vat etuvchi ta'limot. Tariqat-tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya'ni komil inson darajasiga erishishni ko'rsatuvchi yo'l.

Islom tarixida tasavvuf Umaviylar xalifaligining (661 – 750) dunyoviyligiga qarshi norozilik sifatida paydo bo'lgan. So'fiylar islom qonunlariga qat'iy rioya qilganlar va islom fihi va ilohiyotining turli maktablariga mansub edilar. So'fiylarning mutlaq ko'pchiligi, sunniy islom tarafdorlari bo'lib qolsa-da, so'fiylik tafakkurining ba'zi yo'nalishlari o'rta asrlarning oxirlarida shia islomiga o'tdi. Bu, ayniqsa, Safaviylar Eronni qabul qilgandan keyin Irfan tushunchasi ostida sodir bo'ldi. So'fiylik ibodatining muhim yo'nalishlari zikr, ya'ni Xudoni zikr qilish



amaliyotini o'z ichiga oladi. So'fiylar o'zlarining ma'rifiy faoliyatlari bilan islom dinini yoyishda muhim rol o'ynaganlar.

Zamonaviy davrda so'fiylik tariqatlarining nisbatan kamayishi, salafiylar va vahhobiylar hujumlariga qaramay, so'fiylik islom olamida, ayniqsa, sunniy Islomning neotraditionalcha tarmog'ida muhim rol o'ynashda davom etdi. Tasavvuf atamasi Yevropa tillariga dastlab XVIII asrda sharqshunos olimlar tomonidan kiritilgan.

Tasavvuf musulmonlarning shaxsiy amaliyoti sifatida islomning dastlabki kunlaridanoq mavjud bo'lgan. Karl V. Ernstning fikricha, tasavvufning dastlabki namoyandalari Muhammad (s.a.v)ning o'zi va uning sahobalaridir. Muhammad alayhissalomga bay'at qilish bilan sahobalar o'zlarini Allohga xizmat qilishga bag'ishlagan edilar.

(Ey Muhammad), senga bay'at berganlar, albatta, Allohga bay'at qilmoqdalar. Allohning qo'li ularning qo'llari ustidadir. Kimki ahdini buzsa, faqat o'ziga zarar yetkazadi va kim Allohga bergan ahdiga vafo qilsa, unga ulug' ajr ato etur. - Qur'on tarjimasi, 48:10

So'fiylar qonuniy so'fiy shayxga bay'at berish bilan Muhammad(s.a.v)ga bay'at qilish, deb hisoblashadi va izlovchi bilan Muhammad (s.a.v) o'rtasida ma'naviy aloqa o'rnatiladi. Muhammad (s.a.v) orqali so'fiylar Xudoni bilish, tushunish va u bilan bog'lanishni maqsad qilganlar. Ali sahobalar orasida bevosita Muhammad(s.a.v)ga bay'at bergan Ali (r.a.) orqali Muhammad(s.a.v) haqidagi bilim va aloqaga erishish mumkinligini ta'kidlaydilar. Bunday tushunchani so'fiylar sahih deb bilgan Muhammad(s.a.v)ning: „Men ilm shahriman, Ali esa uning darvozasi“, degan hadisda tushunilishi mumkin.

O'rta asrlarning so'nggi tasavvufchisi, fors shoiri Jomiyning so'zlariga ko'ra, Abdulloh ibn Muhammad ibn al-Hanafiya (vafoti 716 y.) birinchi bo'lib „so'fiy“ deb atalgan. Tarixan, so'fiylar ko'pincha tariqa deb nomlanuvchi „tartiblar“ga mansub bo'lgan ulug' ustoz valiy atrofida tuzilgan jamoatlar, ular o'z ta'limotlarini Islom payg'ambari Muhammad(s.a.v)ga qadar bo'lgan ketma-ket o'qituvchilar zanjiri orqali kuzatib boradilar. Hadisi sharifda tafsilot qilinganidek, ular ehsonga intiladilar: „Ehson – Allohga go'yo Uni ko'rayotgandek ibodat qilishingdir, agar sen Uni ko'rmasang, U seni ko'rib turuvchidir“. So'fiylar Muhammad(s.a.v)ni al-Inson al - Komil, mutlaq haqiqat sifatlarini ifodalovchi komil inson deb biladilar va uni o'zlarining yakuniy ruhiy yo'l boshchisi deb bilishadi. XI asrdan islom taqvosida Abdulqodir G'iloniy, G'azzoliy va Sulton Salohiddin kabi islomning eng ko'zga ko'ringan himoyachilarining so'fiylik bilan bog'liqligi tarixan isbotlangan. Islom



sivilizatsiyasining yuksalishi islomda soʻfiylik falsafasining tarqalishi bilan mos keladi. Tasavvufning tarqalishi islom dinining tarqalishida, yaxlit islom madaniyatlarini yaratishda, ayniqsa, Afrika va Osiyoda hal qiluvchi omil hisoblangan. Xoja Ahmad Yassaviy, Rumi kabi soʻfiy shoir va faylasuflar Islom madaniyatining Anadolu, Oʻrta Osiyo va Janubiy Osiyoda tarqalishini ancha kuchaytiradilar<sup>1</sup>

Tasavvuf oʻrta asrlar musulmon sharqida keng tarqaladi. Bu taʼlimot dastlab VIII asr oʻrtalarida Iroqda yuzaga kelgan. Tasavvuf taʼlimoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Movarounnahrda tasavvuf, diniy va maʼnaviy taraqqiyotni talab qilgan va insonning ruhoniyl yondashuviga eʼtibor qaratgan bir yoʻnalish boʻlib, uning taʼlimoti shakllangan va tarixiy mafkurasi oʻz davrida koʻplab oʻzgarishlarga sabab boʻlgan. Bu taraqqiyotning boshlanishi VIII-IX asrlarda boʻlgan va Movarounnahrda buyuk falsafa va ilm fuqarolarining faol ishtirok etgan davrda paydo boʻlgan. Bu davrda Abu Nasr Farobiy, Avitsenna, Al-Farobiy va boshqa olimlar tasavvufiy maʼnaviyatga eʼtibor qilgan. X-XI asrlarda zamonaviy olimlar tasavvufiy fikrni mustaqil ravishda tahlil qilgan. Movarounnahrda tasavvufiy tarix va maʼnaviyat oʻziga xos rivojlanish bosqichlarga tushdi. Bu davrda bir necha tariqatlar oʻz oʻrnini topgan va ularning murshidlari tasavvufiy ilmni oʻqitish bilan shugʻullanishgan. Shuningdek, sufiy olimlar ijodiyot, adabiyot va falsafa sohalarida ham faol ishtirok etgan. Bu jihatdan, Movarounnahrda tasavvuf taʼlimoti fikr, maʼnaviyat va ilm rivojlanishiga olib kelgan jarayonlarning asosiy qismi boʻlib, oʻz davrining maʼnaviy merosini saqlab qoldi.

Movarounnahrning turli oʻlkalarida tasavvufning turli tariqatlari paydo boʻladi. Turkistonda XII asrda Yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda Kubroviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya va boshqa tariqatlar vujudga keldi.

Movarounnahrda keng yoyilgan tasavvuf-Yassaviya tariqati boʻlib, unga Ahmad Yassaviy asos solgan. Tariqatning asoslari Yassaviyning mashhur "Hikmat" asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz maʼrifat, maʼrifatsiz haqiqat boʻla olmaydi. ularning har biri ikkinchisini toʻldiradi va takomillashtiradi. Yassaviya tariqatining asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish gʻoyasi olgʻa suriladi. Unga faqat bu dunyo rohati va farogʻatidan voz kechib uzlatda toat va ibodat yoʻlida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina yetib boradi. Xullas, Yassaviya tariqatida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yoʻlida boʻlmogʻi hamda tarkidunyochilik targʻib etilsada,

<sup>1</sup> [uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org)



inson zoti sharif darajasida ulug'lanadi. Insonning har qanday mol dunyodan ustun turishi ta'kidlanadi.

Tasavvuf ta'limotining buyuk siymolaridan yana biri Najmiddin Kubro (1145-1221) edi. U Xorazmda "Kubroviya" tariqatiga asos soladi.

Yassaviya tariqatidan farqli o'laroq, Kubroviya tariqati tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubroviya tariqatida xalqqa va vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi.

Tasavvuf XIV asrda Naqshbandiya tariqatida yanada rivoj topadi. Unga Bahouddin Naqshband asos soladi. U 1318-yilda Buxoro yaqinida Qasri Hinduvon matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keladi. Yoshligida ta'lim olish bilan bir qatorda kimxob matoga gul bossishni puxta o'rganib, ota kasbi naqqoshlikni egallagan.

Xoja Bahouddin "Hayotnoma" va "Dalil al-oshiqin" nomli asarlar yozib o'z tariqatini yaratadi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xuroson, va Xorazmda keng tarqaladi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr ehson berishga, sofdil va kamtar bo'lishga chaqiradi. Uning "Dil ba yor-u dast ba kor" ("Ko'ngil Allohda bo'lsin-u, qo'l mehnat bilan band bo'lsin") degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi. Naqshbandiya ta'limoti taraqqiyotiga keyingi asrlarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror kabi buyuk allomalar katta hissa qo'shadilar.

Movarounnahrda (O'rta Osiyo miqtaqasi) so'fiylik islom tarixining ilk davrlarida shakllana boshlagan. Bu islomdagi tasavvufiy harakatni ifodalaydi, ichki ruhiy tajriba va Allohga yaqinlikni izlashga urg'u beradi. Movarounnahrda so'fiylik O'rta Osiyo musulmonlari orasida, ayniqsa, o'rta asrlardagi islom sulolalari va ilm markazlarining ta'siri davrida keng tarqaldi. Movarounnahr O'rta Osiyoda so'fiylikning yoyilishida muhim markaz bo'lib xizmat qilgan. Movarounnahrda tasavvufning ma'naviy mafkuraviy jihatlari botiniy ilmga urg'u berish, tafakkur, ma'naviy sirlarni anglash ilohiy birlashishga intilishni o'z ichiga oladi. So'fiylik mintaqada adabiyot, san'at va maorif rivojiga ham hissa qo'shgan. Movarounnahrda so'fiylikning mafkuraviy tarixi turli so'fiylik tariqatlari, ularning yetakchilari (shayxlari) va ular ta'limotining dindorlar orasida tarqalishi bilan



bog'liq. Bu hududdagi so'fiylik islomning boshqa oqimlari bilan ham o'zaro aloqada bo'lib, o'ziga xos an'ana va amaliyotlarni shakllantirgan.

Mustaqillik sharofati bilan Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro singari bobokalonlarimizning aziz nomlari tiklandi, qadamjolari obod etildi. Asarlari chop etilib, ularning bebaho ma'naviy meroslaridan hozirgi avlodlar bahramand bo'lmoqdalar. Chunki islomiy ta'lim-tarbiya asosida ajdodlarimiz kamol topib, o'zlaridan o'chmas tarixiy meros qoldirganlar.<sup>2</sup>

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
2. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
3. Samatov K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
4. Uzwikipedia.org
5. O'zbekiston tarixi 7-sinf darslik . Muall. A. Muhammadjonov. – T.:<<Sharq>>, 2017.-160-bet

<sup>2</sup> O'zbekiston tarixi 7-sinf darslik . Muall. A. Muhammadjonov. – T.:<<Sharq>>, 2017.-160-bet